



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

OROLBO'YI HUDUDIGA CHETDAN KELITIRILGAN TOVUQ KROSSLARINING TUXUM MAHSULDORLIGI

Alimbaev B.K., Ataniyazova Z.P., Abdivoxidov D.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Tuxum oqsilga boy oziq-ovqat sifatida inson salomatligi uchun zarurdir. Tovuqlar tuxum masuldorligi ko'pgina omillarga bog'liq bo'lib, shulardan asosiylari oziqlantirish texnologiyasi, saqlash sharoiti, tovuqlar nasliy xususiyatlari, tovuqlar yoshi shular jumlasidandir.

Sifatli tuxum etishtirishda ularning tarkibi nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Tuxumlarda o'rtacha 11-13 % oqsil, 11-13 % yog', 2,5- 3,2 mg % temir, 250-470 mkg %, A vitamini, shuningdek, D va B₂ vitaminlari, selen, xrom salmoqli miqdorda bo'ladi.

Tovuq tuxumi – bu embrional rivojlanish davrida murtakning o'sishi, rivojlanishi, to'qima va organlarning hosil bo'lishini hamda embrionning oziqlanishini ta'minlaydigan murakkab tizim hisoblanadi. Tuxum hujayralari embrional rivojlanish davrida hosil bo'ladi.

Tadqiqotning maqsadi. Oral bo'yi hududiga chetdan keltirilgan tovuq krosslarning parrandachilik xo'jaligi sharoitida innovatsion texnologiya asosida tuxum ishlab chiqarish

Tadqiqot natijalari. Ko'pchilik soha olimlar fikriga ko'ra, tuxum mahsuldorligi va uning sifati ozuqa tarkibiga bog'liq bo'lib, qo'shimcha ingredientlar qo'shish orqali miqdor va sifat ko'rsatkichlarga erishish mumkinligi isbotlaydi.

1-Jadval

Tovuq krosslarining tuxum mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar		O'lchov birligi	Krosslar	
			I-gurux	II-gurux
			n-20	
			X±Sx	
Tuxumdorligi	50% mahsuldorlik dagi yoshi	Kun	141	144
	Tuxum berishning eng yuqori cho'qqisi	%	92,4	93,2
Tuxum qo'yish boshidagi soni	12 oydag tuxum mahsuldorligi	Dona	314,2±5,52	319,4±4,78
	14 oydag tuxum mahsuldorligi	Dona	349,3±5,65	353,1±6,28
Tuxum qo'yish boshidagi og'irligi	12 oydag tuxum mahsuldorligi	Kg	18,7±0,31	18,8±0,24
	14 oydag tuxum mahsuldorligi	Kg	19,4±0,4	20,7±0,31

Tuxum asosan to'rtta tarkibiy qismdan iborat bo'lib, tuxum oqi butun tuxum vaznining 62-66 % ni, sarig'i 32-36 %, po'stloq osti pardasi va po'stlog'idan iborat. Tuxumning to'mtoq uchidagi havo xaltachasi mavjud. Tuxum oqida proteindan tashqari riboflavinning asosiy qismi mavjuddir. Sarig'i nutrientlarning asosiy "zahira"sidir. Unda oqidagiga qaraganda ko'proq proteinlar, V guruhi vitaminlari, temir va yog'larning barcha zahirasi, A, D vitaminlari, xolin, letsitin mavjud. Tuxum sifati uni saqlash usullariga ham bog'liq bo'lib, tuxumlarni saqlash uchun optimal sharoit 0 °S harorat, nisbiy

namlik 85% va maxsus gazli muhit, ya'niy azot va karbonat angidrid gazi aralashmasi bo'lishi kerak. Tuxumlarni saqlashda uning qobig'iga surtiluvchi maxsus karboksimetil tsellyuloza himoya qatlamidan foydalaniladi.

Tadqiqot ishlarida tuxum yo'nalishidagi I-gurux va II-gurux krosslari mansub tovuqlarning tuxum mahsuldorligi bo'yicha 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tajribadagi tovuq krosslarining tuxum mahsuldorligi bo'yicha, 50 % mahsuldorlikdagi yoshida, birinchi guruhlarda 142 kunni tashkil qilgan bo'lsa, ikkinchi guruhlarda o'rtacha 144 kun bo'ldi.

Xulosa. Tuxum berishning eng yuqori cho'qqisi orasidagi farqlanishlar II-gurux krosslariga mansub tovuqlar I-gurux tovuq krosslariga nisbatan 0,8 %-ga ustunlik qildi. 12 oydagi tuxum mahsuldorligi bo'yicha olingan ma'lumotlarda I-gurux krosslarida $314,2 \pm 5,52$ dona tuxum mahsuldorligini tashkil qilgan bo'lsa, 14 oydagi tuxum mahsuldorligi $349,3 \pm 5,65$ donaga teng bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich shunga mos ravishda II-gurux krosslariga mansub tovuqlarda $319,4 \pm 4,78$ va $353,1 \pm 6,28$ donani tashkil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эрматов Ю.А, Алимбаев.Б.К Элликкала худудиди урчитилаётган “Ломанн браун-классик” ва “Ломанн-сенди” товуқ кроссларининг тухум маҳсулдорлиги. // ж «Чорвачилик ва насилчилик иши» №01 (24).2022.Тошкент. Б.- 26-27
2. Эрматов. Ю.А Алимбаев.Б.К. Импорт қилинаётган товуқ кроссларининг тухум маҳсулдорлиги. // ж «Чорвачилик ва насилчилик иши» №04 (21).2021.Тошкент. Б.- 28-31
3. Абуов, С. К. (2017). Использование кормового концентрата в кормлении телят. *ББК 4я431 Н34*, 88.
4. АБУОВ, С., & БАБАДЖАНОВА, Н. СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ КОРМЛЕНИЯ МОЛОЧНЫХ КОРОВ. *ЕО IPSO Учредители: Издательство " Научная артель"*, (10), 89-90.
5. Абуов, С. К., & Жолдасова, У. Б. (2024). ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ ПТИЦЕВОДСТВА. *НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ «IN SITU»*, 134.
6. Абуов, С. К., Камолова, Л. А. К., & Зарипбаев, С. К. У. (2024). КОРМОПРОИЗВОДСТВО КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЖИВОТНОВОДСТВА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. *IN SITU*, (3), 97-99.
7. Абуов, С. К., Аллашова, К. К., Исмаилов, Н. У., & Усманова, Ж. С. (2024, November). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ МОЛОЧНОГО СКОТОВОДСТВА: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14229554>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 261-263).
8. Абуов, С. К., Ембергенова, Д. К. К., Реметуллаева, Д. Т. К., & Калилаева, Ж. Б. К. (2024). СОСТОЯНИЕ И ПРОБЛЕМЫ ОСВОЕНИЯ РЫНКОВ МЯСА ПТИЦЫ. *IN SITU*, (5), 132-134.
9. Абуов, С. К., & Илалова, Ж. Ж. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПЛЕМЕННОГО СКОТОВОДСТВА. *НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ «A POSTERIORI»*, 26.
10. Абуов, С. К., & Бабаджанова, Н. (2023). РАЗВИТИЕ КОРМОВОЙ БАЗЫ КАК ОСНОВА ЭФФЕКТИВНОГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ОТРАСЛИ МЯСНОГО СКОТОВОДСТВА. In *ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ОСНОВА ПРОГРЕССИВНЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ* (pp. 5-7).

11. Шакарбоев, Э. Б., Азимов, Д. А., Голованов, В. И., Кузнецов, Д. Н., Урымбетов, А. А., & Каниязов, А. Ж. (2017). Гельминты лошадей Узбекистана. *Ветеринария*, (5), 29-32.
12. Урымбетов, А. А. (2019). Репродуктивный потенциал каракульских овец сур каракалпакского породного типа в зависимости от условий содержания на северо-западе Кызылкумов. *Экологический Вестник Северного Кавказа*, 15(4), 91-93.
13. Урымбетов, А. А., & Бобокулов, Н. А. (2024). Молочность каракульских овец окраски сур каракалпакского породного типа. *Овцы, козы, шерстяное дело*, (1), 24-26.
14. Шакарбоев, Е., Сафарова, Ф., Азимов, Д., и Урымбетов, А. (2015). ФАУНА, ЭКОЛОГИЯ И ТАКСОНОМИЯ РЫБ-ГЕЛЬМИНОВ ИЗ ОТДЕЛЕНИЯ «КАРИООБРАЗНЫЕ» В УЗБЕКИСТАНЕ. *Журнал микробиологии, биотехнологии и пищевых наук*, 5 (1), 88.
15. Кислая, А. М. ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ БЕЛАРУСЬ В СФЕРЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ. *РАЗДЕЛ 6*.
16. Bobokulov, N., Khatamov, A., Abduzoirova, D., Yusupov, A., Urimbetov, A., & Olmasov, B. (2021). Meat productivity of sheep in Uzbekistan and its relationship with different factors. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 258, p. 04020). EDP Sciences.

TOVUQLARNING TURLI DAVRDA SAQLANUVCHANLIGI

Alimbaev B., Menglimuratova Z.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Parrandalarning o'sishi va rivojlanishida, mahsuldorlik ko'rsatkichlarining shakllanishida va boshqa shu kabi muhim xususiyatlarning yuzaga chiqishida stress omillarning oldini olish katta ahamiyat kasb etadi. Stres omillar deb parranda organizmini qo'zg'atib, asab tizimining ma'lum vaqtda ananaviy bir maromli qolibdan chiqishi oqibatida mahsuldorlik darajasining pasayib ketishiga olib keluvchi tashqi muhit omillariga aytiladi. Bular orasida eng muhimlari fizik omillar hisoblanib, havo harorati va namligi haddan ziyod shovqinlar, yorug'lik rejimining buzilishi shular qatoriga kiradi. Ko'p sonli ilmiy tajribalardan isbotlanganki, saqlash harorati 21-22 °C muhitda kam ozuqa sarflanish evaziga parrandalardan eng ko'p mahsulot olish mumkinligini va havo haroratining 7°C tushib ketishi yoki 27°C-gacha ko'tarilishi turli xil kasalliklariga chalinishiga olib kelishi ishlab chiqarish amaliyoti tasiqlangan. Parrandalarni saqlash xonalaridagi havodagi namlikning kamayishi organizmda suvning nafas yo'llari orqali havoga chiqishiga sabab bo'ladi va parrandalarning ishtahasi yuqolishiga olib keladi. Bundan tashqari havodagi chang zarrachalari miqdori keskin ko'payishi o'pka to'qimasiga yopishib qolishi natijasida organizmning nimjon bo'lishiga olib keladi. Tovuqlar saqlanadigan xonalar yaqinida kuchli shovqin chiqaruvchi qurilmalardan iloji boricha foydalanmaslik tavsiya etiladi, bunday kuchli shovqinlar ayniqsa, yosh parrandalarga ta'sir etib ularni stress holatiga olib keladi va natijada tirik vazni kamayishi kuzatiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Parrandachilik fermer xo'jaligi sharoitida tuxum yo'nalishidagi "Lohmann brown-classic", va "Lohmann sandy" tovuq krosslariga mansub tovuqlarning saqlanuvchanligini o'rganishdan iborat.